



Ota - onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati va pedagogik yondashuvlar

Sodiqova Dilnozaxon Olimjon qizi

Talaba - Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya : Ushbu maqolada ota - onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning mohiyati chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotlarda oilaning ijtimoiy institut sifatida o'rni , uning kamolotiga ko'rsatadigan ta'siri , shuningdek , ota - onalarning pedagogik savodxonligi tarbiya jarayonining asosiy omili sifatida yoritiladi. Farzand individual rivojlanishi , psixologik o'sish dinamikasi , shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashishning ilmiy asoslari bayon etilib , oilaviy muhitning ijobiy va salbiy jihatlari bolalar ruhiyati va xulq - atvoriga qanday ta'sir qilishi ilmiy manbalar asosida asoslab beriladi .

Kalit so'zlar : oila ,farzand tarbiyasi, ota - onalarning mas'uliyati, pedagogik yondashuvlar tarbiyaviy madaniyati ,oilaviy muhit, psixologik qo'llab - quvvatlash , individual yondashuv , shaxsga yo'naltirilgan tarbiya , bolalar psixologiyasi , rivojlantiruvchi ta'lim , ijtimoiylashuv jarayon , tarbiya strategiyalar , motivatsion qo'llab - quvvatlash , zamonaviy tarbiya omillari .

Farzand tarbiyasi - oilaning jamiyatdagi o'rni va uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim faoliyatlardan biridir. Pedagogik amaliyotlar va ilmiy tadqiqotlar , ota - onalarning tarbiya jarayonida mas'uliyatga ega ekanligini va farzandlarning shaxsiy rivojlanishiga qanday pedagogik yondashuvlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi .Ota - onalarning tarbiya jarayonidagi roli , ayniqsa , bolalarning shaxsiyatini shakllantirishda va ular uchun kelajakda muvaffaqiyatli jamiyat fuqoralari bo'lish uchun zarur bo'lgan asoslardir.

* Zamonaviy pedagogika fanida ota - onalarning farzandga ta'siri nafaqat nazorat va yo'naltirish , balki ularning shaxsiy na'munasi , mehr - muhabbati , ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan munosabatlar orqali ham namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Pedagogik yondashuvlarning asosiy maqsad-- farzandni o'z imkoniyatlari to'liq namoyon eta oladigan, mustaqil fikrlaydigan , jamiyat hayotiga faol hissa qo'shadigan barkamol shaxs sifatida shakllantirishdir.

* Oila - farzandning ilk ijtimoiy maktabi bo'lib, unda shakllanadigan ruhiy - psixologik muhit bola tarbiyasining tamoyillarini belgilab beradi. Ota - onalarning o'zaro munosabati , muloqot madaniyati, mehr - oqibatga boy muhit bolaning shaxs sifatida kamol topishida hal qiluvchi omillardan biridir. Oila ichidagi barqarorlik , o'zaro hurmat va ishonch bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchning shakllanishiga , mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

*Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki , iliq oilaviy muhitga tarbiyalangan bolalarda ijtimoiy moslashuvi , kommunikativ qobiliyatlar va emotsional barqarorlik yuqori

bo‘ladi. Aksincha, ziddiyatli, qo‘pollik hukmron bo‘lgan oilalarda voyaga yetgan bolalarda o‘zini namoyon qilish, boshqalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shuning uchun ham o‘ta - onalarning mas‘uliyati, ularning pedagogik madaniyati oilaviy tarbiyaning markaziy elementlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ota - onalar farzand tarbiyasida an’anaviy usullardan tashqari, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan ham samarali foydalanishlari zarur. Dunyo miqyosida qo‘llanilayotgan rivojlantiruvchi ta’lim, individual yondashuv, ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish, bolalarda tashabbuskorlikni qo‘llab - quvvatlash kabi metodlar o‘z samarasini bermoqda.

* Ota - onalarning tarbiyaviy bilim va ko‘nikmalari har doim ham yetarli darajada bo‘lavermaydi. Bu esa tarbiya jarayonida ayrim xatolarga, bolalarning individual rivojlanishini to‘g‘ri yo‘naltirmaslikka sabab bo‘ladi. Pedagogik madaniyati yetarli bo‘lmagan ota - onalar ko‘pincha mustabid usullarga tayanishadi, bolalarga nisbatan haddan tashqari talabchan yoki aksincha, loqayd bo‘lish holati kuzatiladi.

Ushbu muammoning yechimi sifatida:

* Ota - onalar uchun seminar, trening va ma’ruza mashg‘ulotlarini ko‘paytirish

* Psixologlar bilan muntazam uchrashuvlar tashkil etish.

* Oilaviy maslahat markazlarini rivojlantirish lozim.

* Zamonaviy axborot vositalari, onlayn kurslar, ilmiy - adabiy qo‘llanmalar orqali ota - onalarning pedagogik savodxonligini oshirish tarbiya sifatini sezilarli yaxshilashi mumkin.

* O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: "Yoshlarimizni bilimli, kasb hunarga ega, mustaqil fikrlaydigan insonlar qilib tarbiyalash ota - onalar, ustozlar va butun jamiyatning eng ustuvor vazifasidir." Ushbu qarash ota - onalarning tarbiyaviy mas‘uliyatini nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy - ma’naviy jarayonlarning uzviy qismi sifatida talqin etadi.

* Davlatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator qaror va hujjatlar ham farzand tarbiyasida ota - onalarning rolini mustahkamlashga qaratilgan. Jumladan:

* Ta’lim to‘g‘risidagi Qo‘qon (2023-yil 23-sentabr) - unda oilaning bola ta’lim-tarbiyasidagi o‘rni alohida belgilab berilgan.

* "Yoshlar siyosati to‘g‘risida"gi Qonun (2016-yil 14-sentabr) yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda ota-onalar va jamiyat hamkorligining ahamiyati yoritilgan.

. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasida esa yoshlarni intellektual, ma’naviy va jismoniy rivojlantirishda oilaning mas‘uliyati alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

* "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi Qo‘qon (2019-yil 16-dekabr) ota-onalarning bog‘chalar bilan hamkorlikda ishlashini, tarbiyaviy jarayonni qo‘llab-quvvatlashni belgilaydi.

* Ota va ona bola hayotidagi ilk o‘qituvchi va tarbiyadir. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, farzandning ma’naviy-axloqiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishi avvalo oiladagi muhitga bog‘liq. Bola dastlabki ko‘nikmalarni - nutq, muloqot, xatti-harakat madaniyatini ota-ona orqali egallaydi. Shu bois ota-onalarning shaxsiy na’munasi, xulq-

atvor va qadriyatlarga bo‘lgan munosabati farzand tarbiyasida eng kuchli omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, farzand tarbiyasi ota-onalarning eng muhim va mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Ota-onalarning pedagogik yondashuvi, ya'ni mehr, tushunish, sabr-toqat va to‘g‘ri talabchanlik uyg‘unligi bolada sog‘lom shaxs sifatlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Ongli, izchil va namuna asosidagi tarbiya orqali ota-onalar farzandlarining kelajagi va jamiyat taraqqiyotiga mustahkam poydevor yaratadilar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - Toshkent: Adalat, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida" gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr)

3. O‘zbekiston Respublikasining " Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida" gi Qonuni (2016-yil 16-dekabr)

4. O‘zbekiston Respublikasining " Yoshlar to‘g‘risida " gi Qonuni (2016-yil 14-sentabr)